



ISLOM MA'RIFATINING TA'LIM-TARBIYA SIVILIZATSIYASIGA TA'SIRI

Mukarrama Bekzodovna Jumayeva

Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7027025>

ARTICLE INFO

Received: 20th August 2022

Accepted: 23rd August 2022

Online: 27th August 2022

KEY WORDS

Islom dini, sivilizatsiya, "Qur'oni Karim", ma'rifat, pedagogika, hadis, ta'lim, tarbiya, ma'rifat, axloqiy xislatlar, odob-axloq me'yorlari.

Markaziy Osiyo xalqlari pedagogik fikrlari tarixiy taraqqiyotida VII asrda Arabiston yarim orolida paydo bo'lgan va VIII asrda mintaqamizga ham yoyilgan Islom dini muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Chunki Islom dini, uning asosiy kitobi «Qur'oni Karim» va undan keyingi asosiy manba hisoblangan hadislarda Olohga, uning payg'ambari Muhammad alayhissalomga e'tiqod qilish bilan birga ota-onaga hurmat, mehnatsevarlik, ilmga intilish, o'zaro ahil bo'lish, mehr-oqibat, ehson, sabr-toqat, kamtarlik, vafo-sadoqatlik, poklik, adolat, diyonat kabi insoniy sifatlar haqidagi jihatlari va yaxshi fazilatli hamda odob-axloqli bo'lishlik yo'llari bayon etilgan. Shuningdek, Islom dinida millatidan, elatidan, tanasining rangidan qat'iy nazar, inson insonligi uchun ulug'lanadi. Millatchilik, bir-birini kamsitish, talon-tarojlik, irqchilik Islom dinida yo'q va bo'lmagan.

ABSTRACT

Islom yer yuzida eng keng tarqalgan din bo'lib, u musulmon madaniyatining tarkib topishida muhim rol o'ynaydi. Maqolada islom ma'rifatining ta'lim – tarbiya sivilizatsiyasiga ta'siri, shuningdek komil insonni tarbiyalashda "Qur'oni Karim"ning ahamiyati xususida fikr yuritilgan.

Islom dini har qanday millatchilik kayfiyatidan yuqori turadigan olomshumul ta'limot. U barcha millatlarni birlashtirib, teng, do'st, yoru-birodar qilib, tinch-omon yashashlarini o'qtirib keladi. Ayni paytda Islom dinida razolat, kibr-havo, adovat, xasad, xiyonat, zulm kabi illatlar qoralanadi.

Demak, deyarli 15 asrdan beri ko'p musulmonlarning (qariyb 1,5 milliard) axloqiy-ma'naviy dunyosini mustahkamlab kelayotgan Islom dini, Qur'oni Karim, Hadislar, ayniqsa hadis ilmining buyuk allomalari (muxaddislar) Ismoil al-Buxoriy (810-870), Imom at-Termiziy (824-892) g'oyalarining ahamiyati bugungi kunda ham beqiyosdir.

Markaziy Osiyo xalqlari axloqiy-pedagogik fikrlari tarixiy taraqqiyotida VIII asrning o'rtalarida paydo bo'lgan va IX – XV asrlarda mintaqamizda keng yoyilgan tasavvuf yoki sufizm falsafasi, ayniqsa uning ko'zga ko'ringan vakillari Hoja



Ahmad Yassaviy (1041-1167), Najmiddin Kubro (1145-1221), Bahovuddin Naqshbandiy (1318-1389) ta'limotlarining ahamiyati katta bo'ldi.

Islom odamlarni yaxshilikka da'vat etadi, yomonlikdan qaytaradi. Insonparvarlikni targ'ib etib, razolatni qoralaydi, odob-axloq, ruhiy-ma'naviy poklik va yetuklikka, mehnat qilishga hamda yer yuzini obod va go'zal etishga undaydi. U adolat, tenglik, tinchlik, erkni tarannum etadi. Buni biz «Qur'oni Karim» ning insonning kamolotga erishishiga qay darajada o'rin egallashini, uning insonga, butun borliqqa munosabati, turmush tarzi va xulq-odob me'yorlarini tarkib toptirishda ulkan ahamiyatidan ham bilsak bo'ladi.

Ma'lumki, ilm-fan taraqqiyoti insonning axloqiy kamolga yetishida katta ahamiyatga ega. Shunga ko'ra, xulq-odob qoidalarini tarkib toptirishga «Qur'oni Karim»da asosiy e'tibor beriladi. Har bir shaxsning, jamiyatning ravnaq topishida axloqning asosiy roli tasvirlanadi.

Zero, jamiyat asosi bo'lgan har bir kishining axloqsizligi jamiyatga qay darajada zarar yetkazsa, yaxshi axloqli kishilar ularning ravnaqiga shuncha hissa qo'shadilar. «Qur'oni Karim»da har bir mo'min-musulmon bajarishi zarur bo'lgan yaxshi xulqlar insonning haqiqiy kamolotga undovchi insoniy fazilatlar tushuntiriladi. Chunki Islom dinining asosiy maqsadi ham yomonlikni oldini olish, kishilarga yomonlikning xunuk oqibatlarini tushuntirish hamda ularni doimo to'g'ri yo'lda yurishga chaqirishdan iboratdir. «Qur'oni Karim»da insonda iymonning o'ziga xos mezoni sanalgan saxovat, mehmonnavozlik, jasorat, sabr va qanoat, to'g'rilik, vafodorlik va sodiqlikka katta e'tibor berilgan. Shu sababli, insondagi axloqiy xislatlardan eng muhimi xayr-u

ehson haqida alohida fikr yuritiladi. Unda ehson keng qamrovda olinadi. Unga muomala ham ham, inson amalga oshiradigan barcha yaxshi ishlar ham kiritiladi.

Ehson-insonning tabiiy vazifasi bo'lishi kerakligi talqin etiladi. Chunki ne'matlarni o'zidan boshqalarga ehson etishi kerak: «Alloh senga ehson qilgani kabi sen ham (Allohning bandalariga) infoq - ehson qil», - deyiladi «Qasas» surasining 77-oyatida. Shuningdek, kim birovga ehson qilsa, uning foydasi usha kishining o'ziga qaytishi, chunki birovga yaxshilik qilgan kishi o'zida ruhiy qanoat his etishi, boshqalar tomonidan hurmat-ehtiromga sazovor bo'lishi ta'kidlanadi. Kishilardagi bu yaxshi hislat «An'om» surasining 160 oyatida «Kim biror bir chiroyli amal qilsa, unga o'n barobar qilib qaytarilur. Kim biror bir yomon ish qilsa, faqat ushanning barobarinda jazolanur», - deb ta'riflanadi.

«Qur'oni Karim»da ehsonga loyiq kishilarga birinchi navbatda ota-onalar kiritiladi va ota-ona haqqi belgilab beriladi. «Al-Isro» surasining 23-24 oyatlarida ota-onaga yaxshilik - Alloh taolaga ibodat qilishdan keyingi ikkinchi vazifa sifatida ta'kidlanadi.

Ota-ona har qanday inson bo'lishidan qat'iy nazar farzand ularga nisbatan hurmat saqlashi, ularni so'zlarini qaytarmasligi; ota-ona ham bolani dunyoga keltirish bilan birga, farzandga ta'lim-tarbiya ham berganligini unutmay, haqqiga doimo tayyor turish ta'kidlanadi.

Mazkur oyatlarda eng oliy insoniy muomala qoidalari sifatida quyidagilar belgilangan:

- ota-ona xatti - harakatining farzandga malol kelmasligi,
- ota-ona bilan gaplashganda ularga botadigan so'z aytmaslik,



- ota-onaga ehtirom bajo keltirish,
- ota-onaga rahm - shafqat qilish,
- ularni haqqiga duo qilish.

«Qur'oni Karim»da faqat ota-ona emas, oilaning boshqa a'zolariga: qarindoshlar, yetimlar, kambag'allar, qo'ni-qo'shnilarga ham yaxshilik qilish ta'kidlangan.

«Niso» surasining 36-oyatida «Ota-onangizga hamda qarindosh-urug', yetim va miskinlarga, qarindosh qo'shni va begona qo'shniga, yoningizdagi hamrohingizga, yo'lovchi musofirga yaxshilik qilingiz!» deya kishilarni bir-biriga yaxshilik qilishga undaydi.

Bu oyat katta axloqiy-ijtimoiy ahamiyatga ega. Chunki har bir oilaning mustahkamligi jamiyatni mustahkamlashga, har bir yetimga g'amxo'rlik esa jamiyatning taqdiri uchun harakat qiladigan ma'naviy yuksak insonni kamolga yetkazishga olib keladi. Qo'ni-qo'shnilar bilan totuvlik mahallani mustahkamlashga yordam beradi, bu esa, o'z navbatida, jamiyatning barqarorligiga olib keladi. Demak, yuqoridagi sura oila va jamiyat o'rtasidagi mustahkam aloqani ham ifoda etadi. Ma'lumki, Islom aqidalari, e'tiqod va talablari, huquqiy va axloqiy normalari «Qur'oni Karim» va uning tafsirlarida, «Hadisi Sharif» hamda shariat qo'llanmalarida va ilohiyot adabiyotlarida ifodalangan.

«Qur'oni Karim» - dunyo madaniyatining ulkan boyligi, barcha musulmonlarning muqaddas kitobi bo'lib, arab tilida «Qiroat» manosini anglatadi. «Qur'oni Karim» 114 suradan iborat.

«Qur'oni Karim» kishilarni tenglikka, birodarlikka, tinch-totuv yashashga, ezgulikka undaydi. Shunga ko'ra, u katta axloqiy qimmatga ega. «Qur'oni Karim»ning axloqiy qiymati haqida fikr yuritilar ekan, u insonni ma'naviy kamolga yetishishida qay darajada muhim o'ringa ega ekanligiga amin bo'lamiz. Shuning uchun u mana necha asrlardan beri insoniyatning eng ulug' qadriyati sifatida e'zozlanib kelinmoqda.

Lekin Islom aqidalarining, uning axloqiy, huquqiy talablarining asosiy manbasi sanalgan «Qur'oni Karim» shuro mafkurasi tomonidan qoralanib kelindi. U insonning qadr - qimmatini kamsitadi, bilish va yaratuvchilik qobiliyatini inkor etadi, aqlning, ijodiy kuchlarning ahamiyatini yo'qqa chiqaruvchi, umuman, inson irodasi erkinligini, uning yaratuvchilik rolini kamsitadigan, odamning iste'dodini ijtimoiy-foydali mehnatdan chalg'itadigan ta'limotni ilgari suradi, deb bir yoqlama va teskari tashviqot qilindi.

Aslini olganda, Islom dinida, shuro mafkurachilari ta'kidlaganidek, din va dunyo alohida-alohida olib qaralmaydi. Islom insonning ruhiy tarbiyasiga ham, jismoniy tarbiyasiga ham e'tibor beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, Islom dini mamlakatimizga kirib kelishi bilan o'zining tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan ma'rifati va odob-axloq me'yorlari orqali bizning ta'lim-tarbiya jarayonining sivilizatsiyasiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu esa nafaqat jamiyatimizning taraqqiyotiga, balki pedagogika sohasining rivojida ham muhim o'rin tutdi.

References:

1. M.Saidjonov va boshqalar. Dinlar tarixi. 1999 yil.
2. X.Yo'ldoshxo'jayev, D. Raximjonov, N. Komilov. «Dishunoslik» T., 2000-yil.



3. A.Mo'minov, X.Yo'ldoshxo'jayev, D.Raximxo'jayev va boshqalar. «Dishunoslik» T., 2004 yil.
4. I.Jabbarov. S.Jabborov. Jahon dinlari. 2004 yil.
5. Azizov A. Islom va hozirgi zamon. T., 1992 yil.
6. www.ziyonet.uz